# XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

# Q A R O R I

2024-yil 22-iyul VI-103-88-7-96-K/24 Kattaqo‘rg‘on tumani

**“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi boshlig‘i N.Jo‘rayevning tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslar bilan olib borilayotgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni ijrosini ta’minlash, yosh bolalar, yoshlar, keksalar, nogironlar va ehtiyojmand aholi uchun xizmatlarni sifatli tashkil etish tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari N.Jo‘rayevning hisobotini muhokama etib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 103-sessiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari N.Jo‘rayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (N.Jo‘rayev)ga:

-o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan tizimli ishlash;

-vasiylik va homiylik, farzand asrab olish, himoyaga muhtoj bolalarni davolash;

-yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash;

-tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish;

-nogironligi bo‘lgan shaxslar reabilitatsiya va texnik vositalari POM mahsulotlari bilan ta’minlash;

-uyda parvarish qilish va qo‘llab-quvvatlash tizimlarini samarali tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (N.Jo‘rayev), tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov)ga voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rsin.

4. 10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) hamda tuman hokimining o‘rinbosari N.Jo‘lmatov zimmasiga yuklansin.

| | |
|---|---|
| Sessiya raisi | TESHAYEV MUXIDDIN XOLIKULOVICH |